

Kamalak ranglari



Yomg'irdan so'ng osmonda ba'zan **kamalak** paydo bo'ladi. U katta va **rang-barang yoyga** o'xshaydi.



Kamalak **yetti xil rangdan** iborat. Ular doimo **ma'lum bir tartibda** joylashadi. Quyosh nuri yomg'ir tomchilari orqali o'tganda kamalak hosil bo'ladi. Shuning uchun oftob chiqib turgan paytda yomg'ir yog'gudek bo'lsa, kamalakni ko'rishimiz mumkin.



Bugun siz kamalak ranglari bilan tanishasiz va **applikatsiya** tayyorlaysiz.

Kamalak ranglari tartibini o'zgartirib bo'lmaydi. Bu tartibni oson eslab qolish uchun maxsus eslatma-gapdan foydalaning:

**Qosim
oppoqqina
samolyot
yasashni
menga
ko'rsatib
berdi.**



Ushbu gapdagi har bir so'z kamalak rangi nomining bosh harfi bilan boshlanadi.



Ishlash qoidalari:

- qunt bilan ishlang, ammo shoshilmang;
- yelimni **yupqa qatlam** qilib surting;
- ish o'rningizni **toza tuting**.

Sizga kerak bo'ladi:

- rangli qog'ozlar to'plami;
- oq qog'oz;
- moviy rangli karton;
- PVA yelimi;
- qaychi.

**Ish rejasi:**

1. **Rangli tasmalar** va ikkita oq bulutcha tayyorlang.
2. **Moviy rangli karton** oling.
3. Tasmalarning bir uchini birinchi bulutcha ostiga, boshqa uchini esa ikkinchi bulutcha ostiga yelimlab, yopishtiring. Tasvirni rasmda ko'rsatilganidek yig'ing.

**Bugun siz:**

- **kamalakda qanday ranglar** borligini bilib oldingiz;
 - ularni eslatma-gap yordamida eslab qolishni o'rgandingiz:
- Qosim oppoqqina samolyot yasashni menga ko'rsatib berdi;**
- **Kamalak** applikatsiyasini tayyorladingiz.

